



## **O'zbekiston: Siyosatni tanqid qilganlar qamoq va qiynoq bilan yuzlashadi**

*Jazo muddati ko'p hollarda turli bahonalar bilan uzaytiriladi*

(Varshava, 26-sentabr, 2014) – Inson huquqlari faollari, jurnalistlar va tuzumning boshqa tanqidchilari O'zbekiston hukumati tomonidan nishonga olinadi va qamaladi. Siyosiy sabablar bilan hibsga olinganlar qiynoqqa solinadi va og'ir sharoitlarda saqlanadi, deya bayon qiladi *Human Rights Watch* bugun chiqargan hisobotida.

Mahbuslarga berilgan jazo muddati ko'p hollarda hech qanday asossiz uzaytiriladi. [O'zbekiston](#) dunyoda inson huquqlari eng keng ko'lamda poymol etiladigan davlat bo'lib qolmoqda. O'z fikrini tinch yo'l bilan bildirgan minglab fuqarolar ozodlikdan mahrum etilgan.

121 betlik tahlilnoma “Eng so'nggi lahzagacha: O'zbekistondagi siyosiy mahbuslar” deb nomlanadi. Hisobot siyosatni savolga tutgani uchun qamalgan 34 taniqli insonning mudhish taqdiriga nazar tashlaydi. Ular orasida ikki nafari dunyoda eng uzoq payt panjara ortida saqlangan jurnalistlardir. Ayrimlari esa 20 yildan oshibdiki, qamoqda. Ma'lumotlar 150 izchil suhbat, jumladan 10 sobiq siyosiy mahbus bilan muloqot, shuningdek, yangi olingan yuridik hujjatlarga asoslanadi.

“O'zbekiston hukumati uning tanqidchilari qamoqda azob chekayotganini inkor etadi va hatto ularning borligini rad qiladi”, – deydi [Stiv Sverdlou](#), *Human Rights Watch* tashkilotining Markaziy Osiyo bo'yicha yetakchi mutaxassisi. “Biz to'plagan yangi isbot-dalillar oldida O'zbekiston hukumatining “bizda siyosiy mahbuslar yo'q” degan bahona bilan qutula olmaydi”.

Ma'muriyat siyosiy motivlar bilan qamalgan har bir shaxsni zudlik bilan ozod qilishi va ularning jazo muddatini asossiz uzaytirish amaliyotiga chek qo'yishi lozim. Mahbuslarni qiynash bas qilinsin, deya chaqiradi *Human Rights Watch*.

Tashkilot e'tibor qaratgan mahbuslar zamonning eng iste'dodli, zukko odamlari bo'lib, ular korrupsiyaga qarshi ochiq gapira olgan va haqiqiy demokratik islohotlarga undagan. Ular san'at, madaniyat, din, falsafa va boshqa sohalarda o'ziga xos yangiliklar qilgan va qilishga qodir odamlardir. Ba'zilarining yagona aybi shuki, ularni hukumat “davlat dushmani” deb bilgan. “Konstitutsiyaga qarshi harakat”, “diniy ekstremizm” singari ayblovlar juda mujmal va noto'g'ri qo'llangan va tushuntirilgan. Pora talab qilish, tovlamachilik va pul undirish kabi soxta ayblovlar qo'yilgan.

34 siyosiy mahbusdan kamida 29 nafari qiynoq va boshqa usullar bilan azoblangan. Ular rezinka tayoqlar va suv to'ldirilgan butilkalar bilan do'pposlangan, elektr shokka solingan, qo'l va oyoqlaridan osib qo'yilgan. Jinsiy tajovuz va xo'rlash, boshni selofan paketlar yopib bo'g'ish,

gaz maskalari taqish, suv va ovqat bermaslik hamda yaqinlariga zulm o'tkazish tahdidi singari yo'llar bilan qo'rqitilgan yoki shunday holga solingan.

Azam Farmonov, 2006-yildan beri qamoqda o'tirgan huquq faoli, militsiya uning boshida niqob taqib, bo'g'ishga uringani, oyoqlariga qattiq urganini aytadi. Maqsad mahbusni soxta ayblarga iqror qildirish bo'lgan. Suddan oldin hibsdan uning boshiga suv to'la butilkalar bilan urishgan, Milliy xavfsizlik xizmati xodimlari esa oyoq barmoqlariga mix qoqishi haqida aytib qo'rqitgan. Shuningdek, mahbusga yaqinlari hayoti xavf ostida ekani aytilgan. Farmonov qattiq qiynoqlarni boshdan kechirgan. Sud paytida rafiqasi bilan gaplashganida mahbus shunday degan: "Eng so'nggi lahzagacha chidayman".

*Human Rights Watch* aniqlashicha, hukumat siyosiy mahbuslarga berilgan jazo muddatini muntazam ravishda uzaytirib boradi, ko'pincha muddat nihoyasiga yetishdan sal avval va turli arzimas bahona, asossiz va mavhum sabablar bilan. Mutassaddilar 1994-yilda qamalgan Murod Jo'rayevning muddatini to'rt marta uzaytirgan. Oxirgi bor 2012-yilda. Sabablardan biri – "qamoqxona oshxonasida sabzini noto'g'ri archgan."

Besh siyosiy mahbus O'zbekiston Milliy xavfsizlik xizmati tomonidan xorijdan o'g'irlab olib kelingan. Qonunlar buzilgan. Jarayonda mahbusning huquqlari butkul poymol etilgan.

Siyosiy mahbuslarning ayrimlari qattiq kasal. Ular uzoq payt izolyatorda o'tirgan. Zarur tibbiy muolaja berilmagan. Ularga shafqatsiz va noinsoniy munosabatda bo'lingan. Bu esa xalqaro inson huquqlari bo'yicha burch va majburiyatlarning O'zbekiston hukumati tomonidan qo'pol tarzda buzilishidir.

Huquq faoli Abdurasul Xudoynazarov 2014-yilning may oyida qamoqdan chiqarildi. Oradan 26 kun o'tib olamdan o'tdi. Qamoqxona shifokorlari uning o'pka rakining og'ir ko'rinishidan azob chekayotganini bildirgan. Mahbus uzoq payt azobda yashagan. Sakkiz yil mobaynida Xudoynazarovga zarur tibbiy muolaja olishi uchun ruxsat berilmagan.

Ushbu hisobotda tilga olingan mahbuslardan 18 nafari o'z ishining katta qismi davomida himoyachiga ega bo'lmagan. Sakkiz nafari esa bir yilgacha bedarak ketgan. Ularning qayerda nima uchun saqlanayotgani oilalariga ma'lum qilinmagan. Diniy yetakchi Akrom Yo'ldoshevdan esa 2009-yildan beri hech qanday xabar yo'q. Tirikmi yo o'lik, hech kim aytmaydi. Bu esa xalqaro qonunlarga ziddir. Biror shaxsni qamoqqa olib, u haqda axborot bermaslik mahbusni majburan yo'qotib yuborish hisoblanib, bu yo'l bilan u huquqiy va qonuniy himoyadan mahrum qilinadi. Bu degani u qattiq qiynoqlarga solinishi va xo'rlanishi mumkin, deya bildiradi *Human Rights Watch*.

"Qiynoq, o'g'irlash, axborot bermaslik, izolyatorda saqlash, jazo muddatini uzaytirish – hech kimga ravo ko'rilmaydigan azoblardir", – deydi Sverdlou. "20 yildan beri qamoqdami yoki undan oz, bu insonlar asossiz sudlangan va jazolangan. Shunday ekan, ular ortiqcha bir kun ham o'tirmasligi va darhol ozod etilishi kerak".

Afsuski, O'zbekiston bu odamlarni qamoqda saqlashda davom etib, ularga erkinlik berish talabini rad qilgani bilan bu davlatning Amerika Qo'shma Shtatlari, Yevropa Ittifoqi va boshqa

mamlakatlar bilan aloqalariga uncha zarar yetmagan. Respublika Afg'onistondagi maqsadlar yo'lida yordam ko'rsatayotgani va tranzit yo'nalishida joylashgani bois G'arb u bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

Hukumat huquqni muntazam va sistematik tarzda buzayotganiga qaramay konkret javobgarlikka tutilmaydi. Vaholanki, O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson Huquqlari Kengashi bilan yaqindan ishlashni xohlamaydi. 12 yildirki, BMTning biror maxsus vakilini mamlakatga kiritmay keladi.

O'zbekistonning xalqaro hamkorlari uni inson huquqlari bobida ijobiy qadamlar tashlashga undashi, siyosiy mahbuslarni ozod etish talabini olg'a surishi lozim. Bu davlatlar vijdonan ish tutib, respublika hukumatiga cheklovlar qo'yish, xususan huquqbuzar rasmiylarga viza berishni man etish, ularning xorijdagi mulklarini muzlatish hamda O'zbekistonga harbiy ko'mak ko'rsatishni to'xtatish singari choralar ko'rishi kerak.

BMT Inson huquqlari kengashiga a'zo davlatlar O'zbekistondagi mudhish holat bilan alohida shug'ullanuvchi organ tuzib, maxsus vakil tayinlash taklifini quvvatlashi lozim.

“AQSh, Yevropa Ittifoqi va boshqa yirik davlatlar Islom Karimovning qilmishlarini yaxshi biladi. O'zbekiston prezidenti mustaqil jurnalistika, inson huquqlari, diniy va siyosiy erkinliklar talabini olg'a surgan odamlarni qamoq va qiynoq bilan jazolaydi”, – deydi Sverdlou.

“O'zbekistonning xalqaro maydondagi sheriklari Prezident Karimovga shuni aytishi kerakki, tinchlikparvar faollar, jurnalistlar va dindorlarni qamash va qiynash amaliyoti to'xtatilmas ekan, oqibatlari jiddiy va og'ir bo'ladi”.